



“ЖАҲОН МАТБУОТ
ЭРКИНЛИГИ – ОАВ
ДАВЛАТ ВА ЖАМИЯТ
ҲАЁТИДАГИ РОЛИ”

*илмий-амалий анжумани
мақолалар тўплами*



Toshkent – 2021

**RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI**

*3 май – “Жаҳон матбуот эркинлиги куни” деб эълон қилинганлиги муносабати билан
Республика ёш олимлар кенгаши ННТ лойиҳаси*

1991 йил ЮНЕСКО Бош конференциясининг йигирма олтинчи сессияси тавсиясига кўра, 1993 йил 3 май Жаҳон матбуот эркинлиги куни деб эълон қилинди. Шу йилдан бошлаб, бутун жаҳонда ҳар йили 3-май – матбуот эркинлигининг асосий тамойиллари нишонланаш, матбуот эркинлиги ташаббусларни рағбатлантириш ва ривожлантириш ҳамда бутун дунё бўйлаб матбуот эркинлиги ҳолатини баҳолаш санаси сифатида нишонланиб келинмоқда.

Бугун мамлакатимизда “Янги Ўзбекистон – янгича дунёқараш”ни шакллантиришда оммавий ахборот воситаларининг ўрни ва аҳамиятини ёритиб бериш мақсадида Республика ёш олимлар кенгаши ННТ ташаббуси билан “Жаҳон матбуот эркинлиги – ОАВ давлат ва жамият ҳаётидаги роли” мавзусида илмий-амалий анжуман ўтказилади.

Конференцияда қуйидаги шўьбалар фаолият кўрсатади:

1-шўьба: ОАВ: давлат ва жамият ўртасидаги мувозанатни сақлаш воситаси.

2-шўьба: ОАВ – жамоатчилик назоратининг таъсирчан тизими.

3-шўьба: Жамиятни демократлаштиришда ОАВнинг роли.

4-шўьба: ОАВни ислоҳ қилишда замонавий тенденция ва устувор йўналишлар.

5-шўьба: Ўзбекистонда профессионал журналистика соҳасидаги тажриба ва ютуқлар.

Tahrir hay’ati:

Saidova Sayyora Alisher qizi – falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori PhD

Fotima Tohirova

Dizayner:

Ulug‘bek Saidov

To‘plamga Respublika Oliy va o‘rta-maxsus o‘quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, doktorant, pedagoglar, magistrant va talabalarning maqola va tezislari kiritilgan.

*Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma ma’lumotlar aniqligi
uchun mualliflar javobgar.*

хам мамлакат адлия тизими мамлакатдаги барча инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш учун тўла мустақил ва етарли даражада ресурсли бўлишини таъминлайди. Улар барча қонунчиликни халқаро сўз эркинлиги ва инсон ҳуқуқлари стандартларига мос равишда талқин қилишлари керак. Бундай таъминот аллақачон ички ҳуқуқнинг бир қисми бўлиши таъминланди.

Оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонун сақланиб қоладиган даражада унинг мақсади сўз ва ахборот эркинлигини тарғиб қилиш эканлигини эълон қилиши лозим. Хусусан, унинг мақсади сўз эркинлиги ҳуқуқига мувофиқ оммавий ахборот воситалари эркинлигини таъминлашдан иборатдир. Қонун оммавий ахборот воситаларининг асосий вазифаси янгиликлар ҳақида хабар бериш ва ҳукуматнинг давлат кўриқчиси сифатида ҳаракат қилишдир; ва давлат органлари ҳар доим ўз органлари сўз эркинлиги ҳуқуқини амалга оширишга аралашганда энг кам чекловли ҳаракат воситаларидан фойдаланишларини талаб қилади; Оммавий ахборот воситалари қонунчилигининг ижобий жиҳатлари амалда сақланиши ва тўғри бажарилиши, хусусан, цензурани тақиқлаш ва ОАВ эркинликларини таъминланди.

Ҳар қандай оммавий ахборот воситалари билан боғлиқ Қонунчилик бир томондан босма ва Интернетга асосланган оммавий ахборот воситаларини ва бошқа оммавий ахборот воситаларини ажратиши керак. 4-модда ва 21-модда муносабати билан оммавий ахборот воситаларининг таърифи ўзгартирилди.

Оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонунда ҳеч қандай мазмундаги чекловлар бўлмаслиги таъминланди. Агар маълум тоифадаги баённоманинг эълон қилиниши сўз эркинлигига чеклов қўйиш учун етарли даражада зарар етказиш хавфини туғдирса, бу баённоманинг қайси тарзда тарқатилишидан қатъий назар амал қилиши лозим. Натижада чеклов умумий қўлланиш қонунига жойлаштирилиши лозим¹.

Оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги Қонуннинг 8-моддаси ҳар бир киши ўзи танлаган ҳар қандай гуруҳ ёки шахс билан биргаликда нашр қилиш ҳуқуқига эга эканлигини аниқ кўрсатиш учун ўзгартириш киритилди.

Оммавий ахборот воситалари концепцияси тўғрисидаги Қонуннинг қоидалари ушбу соҳадаги мавжуд халқаро ва минтақавий стандартлар асосида диққат билан кўриб чиқирилиши ва кенгайтирилиши қайд этилди. Манбаларнинг махфийлигини ҳимоя қилиш тўғрисидаги қоида мажбурият эмас, балки ҳуқуқ сифатида ташланиши керак. Бу мунтазам равишда ахборот прорфессионал ёки мунтазам тарқатиш билан шуғулланувчи ҳар бир мурожаат керак. Оммавий ахборот воситалари тўғрисидаги қонун манбаларнинг махфийлигига оид ҳар қандай чеклашлар халқаро ифода эркинлиги меъёрларига мос келиши таъминланди².

Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори ПҚ-4366 “Оммавий ахборот воситалари мустақиллигини таъминлаш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари ахборот хизматлари фаолиятини ривожлантириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” 2019 йил 27 июндаги Қарори муҳим ҳодиса бўлди.

Бунга кўра оммавий ахборот воситалари билан самарали ҳамкорлик қилиш, ахборот хизматлари билан доимий ишловчи журналистлар ва блогерлар доирасида тезкор маълумотларни тарқатиш, шунингдек, норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар лойиҳаларини муҳокама қилишда кенг аҳоли қатламларининг иштирокини таъминлаш мақсадида экспертлар гуруҳини шакллантириш талаб этилган. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1017 – сонли **“Оммавий ахборот ва коммуникациялар соҳасида давлат хизматлари кўрсатишнинг айрим маъмурий регламентларини тасдиқлаш тўғрисида”** 19 2019 йил декабрдаги қарорининг қабул қилиниши муҳим бўлди.

Хулоса қилиб айтганда оммавий ахборот соҳасидаги янгиланишлар пировард натижада **“Янги Ўзбекистон-янги дунёқараш”** шиори остида халқимизни бирлаштиришга хизмат

¹ <https://journalist.uz/n/20716> «Oltin Qalam» XV Milliy mukofoti xalqaro nizomida o‘zgarishlar kutilmoqda 1 Mart, 2021

² <https://www.theguardian.com/media/2011/jul/31/bbc-ed-williams-public-relations> BBC’s mass communication

Turdiyev Bexruz Sobirovich

Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jahondagi OAV erkinligini ta'minlash borasidagi islohotlar va bu boradagi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlar tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: demokratiya, OAV, deklaratsiya, YUNESKO, journalist, strategiya, renessans.

Bugun axboratlashgan davrda demokratik islohotlarni amaliy hayotga joriy etish, fuqarolar ongida yangicha dunyoqarash va tafakkurni shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining roli salmoqlidir. Ayniqsa, ular fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida aholining, oʻsib kelayotgan yosh avlodning axborotga boʻlgan ehtiyojini toʻliq qondirish bilan birga, ularning ongi, dunyoqarashi va siyosiy madaniyatini yuksaltirishda, fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashga asos boʻladi.

Aslida, butunjahon matbuot erkinligi kuni 1993 yil dekabr oyida YUNESKO Bosh konferensiyasining yigirma oltinchi sessiyasidagi tavsiyasiga binoan BMT Bosh assambleyasi tomonidan eʼlon qilingan. 1991 yil 29 apreldan 3 maygacha Namibiya poytaxti Vindxukda boʻlib oʻtgan “Mustaqil va plyuralistik Afrika matbuotini targʻib qilish” Deklaratsiyasi YUNESKO seminarida ishlab chiqilgan. Mazkur deklaratsiyadan asosiy koʻzlangan maqsad etib, mustaqil, plyuralistik va erkin matbuotni tashkil etish, uni saqlash va rivojlantirishdan iborat [1].

Aynan Vindxuk Deklaratsiyasi qabul qilingan kun, 3-may Butunjahon matbuot erkinligi kuni deb eʼlon qilingan. Ushbu kun butun jahonda matbuot erkinligining asosiy prinsiplarini eʼtirof etish, butun dunyo boʻylab matbuot erkinligini ta'minlash, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligiga qarshi hujumlardan himoya qilish va oʻz faoliyati jaroyonida hayotdan koʻz yumgan jurnalistlarni xotirlash kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Garchi, butunjahon matbuot erkinligi kuni 1993 yildan buyon nishonlanib kelinayotgan boʻlsa-da, bu BMT tarixida biroz chuqur oʻtmishga ega. Jumladan, ushbu prinsip 1948 yilgi Inson huquqlari toʻgʻrisidagi umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida: “Har bir inson eʼtiqod erkinligi va uni erkin ifoda qilish huquqiga ega; bu huquq hech bir tusqsiz oʻz eʼtiqodiga amal qilish erkinligini hamda axborot va gʻoyalarni har qanday vosita bilan, davlat chegaralaridan qatʼi nazar, izlash, olish va tarqatish erkinligini oʻz ichiga oladi” [2] deya belgilangan. Shuningdek, 1997 yildan beri har yili YUNESKO tomonidan “Guillermo Cano World Press Freedom Prize” mukofoti shaxsning oʻz hayotini xavf ostiga qoʻyib, soʻz erkinligini himoya qilganligini taqdirlash uchun taʼsis etilgan. Bu mukofot 1986 yilda narkbaronlar faoliyatini ochib berganidan soʻng, oʻldirilgan kolumbiyalik jurnalist Gilyermo Kanoga sharafiga atalgan. Darvoqe, u ushbu mukofotning dastlabki laureati hisoblanadi [3].

Bugun Butunjahon matbuot erkinligi kuni BMT tomonidan tantanali tarzda tashkil etilib, har yil uchun turli xil mavzular shiori ostida oʻtkazilib kelinmoqda. Jumladan:

1998 yil – “Matbuot erkinligi inson huquqlarining asosidir”;

2010 yil – “Axborot erkinligi: bilish huquqi”;

2017 yil – “Tanqidiy zamonlar uchun tanqidiy fikrlar: Tinchlik, adolatli va inklyuziv jamiyatni rivojlantirishda ommaviy axborot vositalarining roli”;

2020 yil – “Qoʻrquvsiz va xolis jurnalistika”;

2021 yil – “Axborot jamoat boyligi sifatida”.

Albatta, ushbu tadbirning butun dunyo miqyosida oʻtkazilishi, hukumatga matbuot erkinligi tarafdorlarini hurmat qilish zarurligi toʻgʻrisida eslatmani hayotga tadbir etilishiga, ommaviy axborot vositalari xodimlari oʻrtasida matbuot erkinligi va kasb etikasi masalalari haqida mulohaza yuritish imkonini beradi. Demak, Butunjahon matbuot erkinligi kuni:

- matbuot erkinligining asosiy prinsiplarini nishonlash;
- butun dunyo bo‘ylab matbuot erkinligi holatini baholash;
- ommaviy axborot vositalarini ularning mustaqilligiga qarshi hujumlardan himoya qilish;
- xizmat paytida hayotdan ko‘z yumgan jurnalistlarga hurmat bajo keltirish;
- matbuot erkinligiga doir tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- butun dunyo bo‘ylab matbuot erkinligi holatini baholash;
- hukumatga ularning matbuot erkinligiga bo‘lgan sadoqatini hurmat qilish zarurligi to‘g‘risida eslatish vazifasini bajaradi;
- matbuot erkinligi va kasb etikasi masalalari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari xodimlari o‘rtasida fikrlash almashish;
- matbuot erkinligini cheklash yoki yo‘q qilishni bartaraf etish uchun xizmat qiladi [4].

Shu ma’noda, O‘zbekistonda ham ommaviy axborot vositalariga to‘rtinchi hokimiyat darajasida e’tibor berilgani bejiz emas. Xususan, O‘zbekistonda ommaviy axborot vositalarini erkinlashtirish strategik islohotlar asosida izchil, tizimli va tadrijiy tarzda amalga oshirilayotganligi diqqatga sazovor. Buning yorqin tadig‘ini, yurtimizdagi OAV faoliyatini umumiy e’tirof etilgan xalqaro me’yor va andozalarga mosligini tartibga soluvchi jumladan, “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida”gi, “Axborot olish erkinligi va kafolatlari to‘g‘risida”gi, “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi, “Bolalarni ularning sog‘lig‘iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to‘g‘risida”gi bir qator qonunlarni sanab o‘tish mumkin.

O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, O‘zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari (OAV) va axborot agentliklarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi, Elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi, Jurnalistlarni qayta tayyorlash markazi tashkil etildi. Mamlakatda fikrlar xilma-xilligi va aholining siyosiy madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladigan ko‘p partiyali matbuot rivojlanmoqda. O‘zbekiston aholisining ko‘p millatli ekanligi inobatga olinib, 12 tilda gazetalar chop etilmoqda, bir necha tilda teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar efirga uzatilayapti. Yurtimizda 27 iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Jurnalist ijodkorlarni har tomonlama rag‘batlantirish masalasiga ham katta e’tibor berilayotir. Buni o‘tkazilayotgan turli ko‘riktanlovlar, xususan “Yilning eng faol jurnalisti”, “Eng ulug‘ va eng aziz”, “Atirgul” singari ko‘rik-tanlovlarning nufuzi yil sayin oshib, ishtirokchilar safi tobora kengayib borayotganidan ham bilish mumkin. 3 may – Jahon matbuoti erkinligi kuniga bag‘ishlab jurnalistika sohasida “Oltin qalam” Milliy mukofoti ta’sis etilib tanlov o‘tkazilmoqda [5].

Umuman olganda, mamlakatimizdagi jurnalistika sohasidagi strategik islohotlar bir tomondan, milliy va xalqaro jurnalistikaning eng ilg‘or yutuqlarini o‘zlashtirish, ommaviy axborot vositalari xodimlarining faolligini oshirish, jurnalistlar faoliyatida tanqidiy-tahliliy fikrlash va ijodiy faoliyatga yangicha yondashuvlarni rivojlantirish “Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarash” prinsipini hayotga tadbiq etishga olib kelsa, ikkinchi tomondan, O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida davlat dasturlarini amalga oshirishda jurnalistlarning xolis, tezkor va haqqoniy axborotlari, davlat va jamiyat boshqaruvining samarali ishlashiga, fuqarolarning davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarida faol ishtirokini ta’minlashga, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va O‘zbekistonda Uchinchi Renessans g‘oyasini ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Berger, Guy (2017). “Why the World Became concerned with Journalistic Safety”, *The Assault on Journalism*. UNESCO. pp. 33–43.
2. Universal Declaration of Human Rights, United Nations, 1948.
3. World Press Freedom Day // <https://www.timeanddate.com/holidays/un/world-press-freedom-day>

4. About World Press Freedom Day //http://www.unesco.org/new/en/unesco /events/prizes-and-celebrations/celebrations/international-days/world-press-freedom-day/about-world-press-freedom-day/

5. Jalilov A., Muhammadiyev U., Jo‘rayev Q. Fuqarolik jamiyati asoslari: - T.: “BAKTRIA PRESS” 2015. –B.187.

М У Н Д А Р И Ж А

<i>Райимова Шаҳноза Содиқовна. ОАВ – жамиятнинг жонли кўзгуси</i>	6
<i>Ҳайитбоев Жонибек, Атоева Дилсора. Фуқаролик жамиятини демократлаштиришда оммавий ахборот воситаларининг роли</i>	8
<i>Ҳоқуббойева Шохиста То‘раҳон қизи. ОАВ – давлат ва жамият о‘рталаридаги мувоzanatni saqlash vositasi</i>	11
<i>Абдинобийева Дилафруз. 2021-йилнинг 21 zamonaviy trendlari</i>	13
<i>Ҳалилов Мирсаид Бектош о‘ғли. Ахборот ва со‘з erkinligini ta‘minlash</i>	16
<i>Ҳулдузхон Ҳайитова Ҳавлоновна. Журналистика-yangiliklar yaratuvchisi. Bugungi zamonaviy журналистика muammolari</i>	18
<i>Лобархон Базарбайева. Bugungi kun журналистикasi! Davr talablari va blogerlar!</i>	20
<i>Ергашев Ибодулла, Ҳолиқов Ҳазизжон Махмуд о‘ғли. Ommaviy ахборот vositalarining O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va hamjihatlikni yuksaltirishdagi o‘rni</i>	23
<i>Ҳажабова Муҳтарам Ҳазратқулловна. Demokratik islohatlarni tadbiiq etishda ommaviy ахборот vositalarining o‘rni</i>	26
<i>Қомилхо‘jayев Зоҳиджон Шухрат о‘ғли. Mamlakatimizdagi ijtimoiy o‘zgarishlarni targ‘ibot- tashviqot qilishda ommaviy ахборот vositalarining o‘rni</i>	29
<i>Барнохон Қурбонали қизи Ҳумайева. So‘z erkinligi – inson erkinligi</i>	31
<i>Ҳалилов Мирсаид Бектош о‘ғли. O‘zbekistonda ommaviy ахборот vositalarining o‘rni va jamiyatimiz taraqqiyotidagi ahamiyati</i>	33
<i>Тешайева Маржона Шухрат қизи. Jamiyatni demokratlashtirishda ОАВning roli</i>	35
<i>Усмонов Қамолiddin Салимжонovich. Ommaviy ахборот vositalari mafkuraviy targ‘ibotni amalga oshirishning muhim bo‘g‘ini</i>	37
<i>Шарипов Шаҳзоd Шухратович. Роль сми в оптимизации органов государственного управления в Республике Узбекистан</i>	39
<i>Султанов Шохруҳ Раҳмон о‘ғли, Мунаввархонова Маҳлийохон Музаффархон қизи. Fan va ta‘lim sohalarining rivojlanishida ommaviy ахборот vositalarining o‘ziga xos ahamiyati</i>	41
<i>Отобойев Фаррух Акбар о‘ғли. Yangi O‘zbekistonda – yangicha dunyoqarashni shakllantirishda matbuot hamda so‘z erkinligi</i>	44
<i>Отобойева Дилшода Са‘дулла қизи. Yangi O‘zbekiston – yangicha dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy ахборот vositalarining o‘rni</i>	46
<i>Қаландаров Ҳамза Ҳамроқул о‘ғли. Ommaviy ахборот vositalari O‘zbekistonda shakllanayotgan fuqarolik jamiyatining mexanizmlaridan biri sifatida</i>	48
<i>Қаландарова Ирода Ҳамдам қизи, Сапайева Гулбаҳор Одилбек қизи. Zamonaviy jamiyatdagi ommaviy ахборот vositalarining funksiyalari</i>	51
<i>Саторова Ҳуршода, Отaxonov Нурбек. O‘zbekistonda professional журналистика sohasidagi tajriba va yutuqlar</i>	54
<i>Ширинов Анвар Қаноатович. Ommaviy ахборот vositalari soҳasidaги эркинлаштириш жараёнлари инсон тараққиётини таъминловчи восита сифатида</i>	56
<i>Шоев Иззатулло Ҳусенович. 3 мая – всемирный день свободы прессы (печати)</i>	59
<i>Турдийев Вехруз Собирович. 2021: ахборот jamoat boyligi sifatida</i>	61
<i>Ёқубжонов Жавахир Қаримжон ўғли. Demokratik isloхотlarni haётga tatbiq etishda ommaviy ахборот vositalarining ўрни</i>	64
<i>Абдусаломова Зарина. Jahon matbuot erkinligi – ommaviy ахборот vositalari davlat va jamiyat hayotidagi roli</i>	67
<i>Саидганиева Шаҳодатхон Талатбек қизи. Жамиятни демократлаштиришда оммавий ахборот воситаларнинг аҳамияти</i>	69
<i>Раҳимжонова Нозима Ҳайрулла қизи. Ўзбекистоннинг ташқи имиджини ривожлантиришда оммавий ахборот воситаларининг ўрни</i>	71
<i>Арифдўжанов Шаҳзоd Бахтиёрвич. Mamlakatimizda ommaviy ахборот vositalarining жамиятдаги ўрни</i>	74

